
Vazirlar Mahkamasining mas'ullari ishtirokida o'quv-amaliy seminar o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripovning 2019 yil 27 fevraldagi 09G'1-2388-sonli topshirig'iga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kotibiyat va bo'lim mudirlari, mutaxassislari tomonidan 2019 yil 28 mart kuni Farg'ona shahar hokimligining majlislar zalida "Ish yuritish, hujjatlar bilan ishlash, me'yoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, topshiriqlar bajarilishida nazoratni tizimli yo'lga qo'yish va axborot xavfsizligini ta'minlash" mavzusidagi o'quv-amaliy seminari o'tkazildi.



Seminarda viloyat hokimligining guruh va bo'lim rahbarlari hamda mutaxassislari, shahar, tuman hokimliklarining birinchi o'rinbosarlari, tashkiliy-nazorat guruhi va devonxona bo'limlari rahbarlari, yuristlari, ijro intizomiga mas'ul xodimlari, viloyat boshqarma va tashkilotlarning ijro intizomiga mas'ul o'rinbosarlari hamda xodimlari ishtirok etdilar.



Seminar ishi davomida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Hududlarni kompleks rivojlantirish, kommunikatsiyalar va mudofaa sanoati masalalari kotibiyati bosh mutaxassisi R.Xasanov, umumiy bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Aminova, nazorat va ijro intizomi bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Yusupbaev, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Galtemirov, yuridik ta'minlash boshqarmasi bosh mutaxassisi M.Maxmadaminov, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi N.Kadirov va Adliya vazirligi katta maslahatchisi A.Rajabovlar ma'ruza qildilar va ishtirokchilarning qiziqtirgan savollariga javoblar berdilar.



Shuningdek, viloyat hokimligi, shahar, tuman hokimliklari va viloyatdagi korxonalar, tashkilotlarning mas'ul xodimlari viloyatda sohada olib borilayotgan ishlar bo'yicha o'zaro tajriba almashdilar.

X.Umurzaqov

Farg'ona viloyati hokimligi bosh mutaxassisi

2019-03-29 20:35:53